

VOLUME II | ISSUE 1 | JANUARY

2024

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 1-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-1

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-1

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-1>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

TOJIEVA Nilufar Tohirjon qizi
Osiyo xalqaro universiteti
magistranti

ELOV Ziyodullo Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10558867>

VOYAGA YETMAGANLARGA SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINI O‘TKAZILISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda anchagina dolzarbligi bilan ajralib turgan voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o‘tkazilishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bugungi jarayonda sud-huquq tizimi amaliyotda ushbu sudga oid teskshiruv jarayonida ma’lum muammolarga uchramoqda. Bu holatda ijtimoiy psixologik materiallar yetishmasligi sudya, tergovchilar va ekspertlarni hamda sudga oid psixologik ekspertisasi mukammal emasligi bilan bog‘lanadi. Maqolada shu kabi jarayonlarning mazmun-mohiyati atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ekspertiza, sud-psixologik ekspertiza, ekspert, affekt, homosapiyens, progress, forum, yig‘ilish joyi, Forensis, Toksikologiya, buzilish, sud, tergov, yurist.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОВЕДЕНИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются социально-психологические особенности психологической экспертизы несовершеннолетних, что весьма актуально на сегодняшний день. На практике существует множество сложностей при назначении научной психологической экспертизы. В данном случае недостаток социально-психологических материалов связан с отсутствием у судьи следователей и экспертов, а также психологической экспертизы суда.

Ключевые слова: экспертиза, судебно-психологическая экспертиза, эксперт, влияние, прогресс, форум, место встречи, Судмедэкспертиза, Токсикология, нарушение, суд, расследование, адвокат.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF JUDICIAL PSYCHOLOGICAL EXPANSION OF MINORS

ANNOTATION

This article discusses the social and psychological characteristics of the psychological examination of minors, which is very relevant today. In practice, there are many difficulties in appointing scientific psychological expertise. In this case, the lack of social psychological materials is connected with the lack of the judge's investigators and experts and the psychological expertise of the court.

Keywords: expertise, forensic psychological expertise, expert, affect, progress, forum, meeting place, Forensics, Toxicology, violation, court, investigation, lawyer.

Hozirgi vaqtda zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, insoniyat uchun nafaqat tezlashtirilgan o'zgarishlar sur'atiga ko'nikish, balki o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga moslashish qobiliyati muammosini ham qo'ymoqda. Albatta, jamiyatdagi mavjudlik va hayot muayyan bilimlarni talab qiladi.

Insoniyattaraqqiyotining rivojlanishiuzoq davrlarga borib taqaladi. Aql idrokli odam (*homo sapiens*) erda hayot kechirishni boshlaganidan buyon qanchadan-qancha jarayonlar, yangiliklar va kashfiyotlar shu bilan birga juda ko'p insoniyat ishtirok etgan qirg'inlarga guvoh bo'ldi. Taraqqiyot (*progress*)ningjuda tez suratlardabo'linishikishining ongi va psixikasi rivojlanishigasezilarli darajada tas'ir ko'rsatib kelmoqda.

Birgina XX-asrning o'zida bo'lib o'tgan juda k'op voqea xodisalar inson evolyutsiyasini yangi jarayonga olib chiqdi. Xatto shu darajaga borib yettiki inson birgina xarakati bilan o'zini-o'zi yo'q qilib yuborish xolatigayetib kelganligiga bugun guvoh bo'lib turibmiz.

Aynan shunday rivojlanish jarayonida sud-huquq tizimiga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi, normativ qonun hujjatlariga bo'lgan talab va ehtiyojning ko'payishi bugungi jamiyatda odatiy holga aylanib qoldi. Aholining yuridik saviyasini oshirish bo'yicha turli jamiyatlar zarur choralarni ko'rib kelmoqda [1, 5].

Bugun yurtimizda ham sud-huquq tizimi jadal rivojlanayotganligini ko'rib turibmiz. Ayniqsa ushbu tizimning bir qator sohalariga bo'lgan ehtiyoj mustaqillik yillarida mamlakatimizdasezilarli darajada rivojlandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sud-huquq tiziminig ajralmas qismi hisoblangan sud-psixologikekspertizasi aynan bugungi jamiyatda jadal rivojlanayotgan sohaning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Sud ekspertizasi, shuningdek kriminalistika deb ham ataladi. Jinoiy va fuqarolik huquqi masalalarida qonuniy qarorlar qabul qilinishini qo'llab quvvatlash uchun fan tamoyilari va usullarini qo'llanilishidir. Hususan tergov jarayonida u mavjud dalillar va jinoyat protsesining huduqiy meyorlari bilan tartibga solinadi. Bu DNK tahlili barmoq izlari, qon dog'lari namunalari, o'qotar qurolari ballistikasi, toksikologiya va yorg'in qoldiqlarini tahlil qilish kabi ko'plab amaliyotlaridan foydalanadigan keng sohadir [5].

Sud ekspertiza atamasi lotincha "FORENSIS" so'zidan olingan bo'lib tuslanish, sifatdosh so'zidan kelib chiqqan. Ushbu tushuncha "forum", "yigilish joyi" degan ma'noni anglatadi. Sud ekspertiza eng birinchi qo'llanilishi qadimgi Yunoniston va Rim jamiyatlariga to'g'ri keladi. Sud ekspertizasi tarixidagi shonli davr bu XVI-XVII asrlar hisoblanadi. XVI-asrda evropada o'lim sabablari va usullari haqida malumot to'plash birinchi marta shifokorlar tomonidan boshlangan. Fransuzarmiyasi jarrohi Ambroise Pare zo'ravon o'limning ichki organlarga ta'sirini metodik ravishda o'rganadi. Shuningdek shu davrda Italiyalik jarrohlar Fortunato Fidelisva Paolo Zakkiya tomonidan zamonaviy patalogiyaga asos so'lgan. Ular bunga kasallik tufayli tana tuzilishidagi o'zgarishlarinio'rganish orqali erishdilar. XVII-asrning boshlanishi bilan sud ekspertizasining ahamiyati fanning boshqa yutuqlari tufayli asta sekin kuchaydi. Sud ekspertizasi tarixidagi asosiy voqealar 1800-yillarga to'g'ri keladi.

Sud ekspertizasining muhim jarayonlari quyidagilar.

- So‘ralgan hujjatlar tahlili birinchi bo‘lib qayt etildi.
- Qon mavjudligi sud tibbiy tahlil qilish uchun ishlab chiqarilgan testlar.
- O‘q solishtirish birinchi marta qotilni hukm qilish uchun ishlatilgan.
- Toksikologiya hakamlar hayati sudida qo‘llaniladi.
- Gemogloblin uchun birinchi kristal testni ishlab chiqilgan
- Fotosurat birinchi marta jinoyatchilarni aniqlash va dalillar va jinoyat joylarini hujjatlashtirish uchun ishlatilagan.
- Jinoyatni ochish uchun barmoq izlarini tahlilidan foydalanish birinchi marta qayt etilgan.
- Taqqoslash ko‘pigi bilan birinchi mikroskopning rivojlanishi.

Sud ekspertizaning zamonaviy tarixi XX-asrning boshlarida dalillar tekshiruvining yangi sud tibbiyot usullarini ishlab chiqishda jadallik kuzatildi bu huquqni muhofaza qilish organlariningdalillarning to‘plash va tahlil qilish bo‘yicha maxsus sud tergov guruhlari talabi anglab yetishga olib keladi [1, 6].

Sud ekspertizasi texnika va fan yutuqlaridan fuqaro tamonifdan sodir etilgan, hojalik, jinoiy, mamuriy protseslarda foydalanishning bir bo‘lagi. Psixologik ekspertiza ishni to‘g‘ri hal etish uchun ahamiyati juda kattachunki aniq holatlarni kashf etish maqsadida otkaziladi. Ekspertiza surishtiruvchi, tergovchi, sudning topshiriqlariga binoan maxsus bilimlarga ega hodim tamonidan beriladigan dalillar voqea hodisalarni tekshiradi. Demak ekspertiza bu ilmiy amalaiy tekshiruv usuli bo‘lib uning maqsadi o‘zini oldiga qo‘yilgan qandaydir aniq savollarga javob berishdan iborat. Bunday tekshiruv o‘tkazuvchi va hulosa beruvchi mutaxassisga ekspert deyiladi [6].

Sud ekspertiziyasini tashkil qilish davlat tamonidan ajtarilgan muassalarda o‘tkaziladi. O‘zbekiston respublikasida Sud ekspertiziyasini “X. Sulaymonova” nomidagi Respublikasud ekspertizamarkazi va uning bo‘linmalari, yani Sog‘liqni saqlash vazirligi Sud-tibbiy ekspertiza bosh buyrosi va uni bo‘limlarida o‘tkaziladi. Sud ekspertiza ishonch va sifatini ta‘minlaydi [5, 7].

Voyaga yetmaganlar ishlarida aynan mana shunday eksperizanio‘tkazishda psixologiya soxasidagi bilim va ko‘nikmalari, uslubi va nazariyasi va psixologik tatqiqot otkazish me‘yorlarini faqat o‘z ishida mukammal tajribaga ega bo‘lgan psixolog bo‘lishi kerak. Psixologiya fani jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy davrda psixologik ekspertizaningjuda katta imkoniyatlarini borligini xis qilishimiz mumkin. Ayniqsa voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyat vahuquq buzilishlarini oldini olishimiz uchunkundan kunga imkoniyat eshiklari ochilmoqda.Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoiy mamuriy ishlar jarayonlari ishtirokchilarini ko‘rsatmalarining asl mohiyatini aniqlash psixologiya metodika texnologiyasi qo‘llanishi juda qulay.

Voyaga yetmaganlar kimlar hisoblanidi? Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra 18 yoshga to‘lmagan shaxslar hisoblanadi. Demak har qanday holatda bu qonunbuzarlikni voyaga yetmaganlarni yashi o‘rganib chiqishga e‘tibor kuchayadi va chuqur o‘rganilgan holatda voqea hodisalalrga aniq va ravshan baho berib asl ko‘zlangan maqsadga bo‘rishimiz oson va samarali boladi. Yana bir tamondan osha vodea hodisalarda ko‘rsatmalar asl haqiqat ekanligini taminlaydi [6, 7].

Psixologik yondashuvlar ekspertiza yuzasidagi shaxsga aniq diagnos qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Psixologik ekspertiza malumotlarni to‘plash va tatqiqot qilish uchun ilmiy usullardan foydalaniladilar. Ko‘pincha ularning ishi har bir vaqtning o‘zida bir tatqiqotdan kattaroq topilma yoki olib keladi. Ba‘zi tatqiqotchilar o‘zlarining butun faoliyatini bitta murakkab tadqiqot savoliga javob berishga bagishlanadi. Tergovdagi yoki ekspertiza yuzasidagi shaxsning qanchalik berilgan savollarga aniq va ravshan javob berayotgani bu shaxs bilan yolg'on ko‘rsatma yoki aksincha rost so‘zlayotganligini bilib olish qiyin emas. Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatlarda odatda uzoq muddatli jazo tahdid emas balki qisqa muddatli ijobiy rohatlanish mukofatlanadi. Xo‘sh voyaga yetmaganlarni jinoyatlarini negizi nimalardan iborat?

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga yordam beradigan omillar ekstraversiyasi, nervotizm, psixotizm, va jinoyatga moilligi mavjudligidir. Bundan tashqari 1966-yilda Govard Bekker tamonidan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini to'rt turga bolishi mumkin deb aytgan ular quyidagilar; individual, guruh tamonida qo'llab quvvatlanadigan, uyushganhamda vaziyatlarga bog'liq jinoyatlar.

Tasavvurimizda ho'mraygan sovuqqon shaxs avvaldan o'ylab qo'ygan yolg'on hikoyasini aytib berishga tayyor bo'ladi. Ayni mana shu sababli ko'rsatmali qadrlil emas hisoblanadi. U har qanday vaziyatda faqat sud va psixolog ekspertlarni aldashga xarakat qiladi. Biroq voyaga yetmaganlar o'rtasidagi ekspertlar guvoxlarga nisbatan ancha foydali va samarali hisoblanadi. Aytilayotgan gap so'zlarini qanchalik haqiqiy ekanligini berayotgan ko'rsatmasiga berilayotgan savollarga javoblar asosida jarayondan tashqari va o'z vakolatidan kechib sud vakolatiga kiradi. Psixolog ekspertni huquqiy holatni aniqlash beriladi.

Bunda faqatgina ko'rsatmalarni haqiqiy ekanligini emas balki jinoyat yoki qonunbuzarlik qilgan shaxsni aytilgan so'zlari qanchalik haqiqiy ekanligini tekshirishdan iborat. Shu o'rinda aytib o'tish joizki voyaga yetmagan yoshlarni huquqlarini himoya qilish va bu davrdagi yoshlar o'rtasidagi qonunbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish, yurtimizda qolaversa butun jaxondagi halqaro tashkilotlarni birlamchi maqsad va vasifasidir. Tabiiyki bizda savol tugiladi yani qanday holatlarda psixologik ekspertiza o'tkazish zarur? Demakki quyidagi holatlarni aniqlash zaruriyati sud psixologik ekspertizasi taniylashga asos boladi [2, 5].

- Ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan, psixik rivojlanishda orqada qo'lmagan bo'lsa yani voyaga yetmagan ayblanuvchi o'z harakatlarni tushuna olishi va shu harakatlarni boshqara olganda.

- Yosh hususiyatlarini psixik rivojlanish holati individual psixologik sog'lom bo'lsa va bu jabrlanuvchining ishi uchun zaruriy bo'lsa.

- Jinoyat sodir bo'lgan vaqtda aybdorga affekt va inson ongiga harakatiga tasir ko'rsatish imkoniyati ega hamda nopatalogik emosiyalar bor bolsa.

- Nomusga tegish jinoyati bo'yicha ruhiy sog'lom jabrlanuvchiga oid qilingan hatti harakatlarni tushunish qobiliyati aniqlanganda.

- Ba'zi insonlarda kuzatiladigan holatlar yani parishonhotirlik, dovdirash paydo bo'lishi kuzatilganda va ulani qay darajada kechishi kuzatilganda.

- Insonni hulq atvori mustahkamlashda yo'naltiruvchi motivlar belgilash va harakat motivasiyasi aniqlanganda.

- Shaxsning hulq atvoriga katta tas'ir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganda individual psixologik diagnostikasi paydo bo'lganda.

- O'lgan odam o'limidan avvalgi holatda o'zini o'ldirishi uchun qulay sharoit yaratib beruvchining ruhiy holati va bu holatga qulay fursat bor yoki yo'qligini aniqlashda [6, 7].

Shunda holatlar kuzatilgan bo'lsa psixolog ekspertiza o'tkazilishi juda ham zarur hodisa hisoblanadi. Shu o'rinda alohida yana qayta takidlash lozimki demakki bunday vazifani o'z ishini mohir ustasi tamonidan bajarilishi lozim. Bu holatda har bir hatti harakat har bir yuz ifodasi so'zlayotgan so'zlar yakuniga alohida e'tiborda bo'lishi ham juda muhim hisoblanadi. Psixologik ekspertiza otkazilishi tayinlashi va tayorlanishi huquqiy normalarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Bunday holatlarda bir qancha ekspert va psixolog ekspertlar tamonidan sinchikovlik bilan o'rganilishi talab etadi. Ekspert savolarini aniq mazmunda berilishining umumiy talablari bo'lib ular, quyidagilardan iborat.

- Aybdor shaxs jinoyat sodir etilgan vaqtda uning hulqiga tasir korsatish imkoniyatiga ega bo'lgan fiziologik affekt tas'irida bo'lganmi?

- Aybdor shaxs jinoyat sodir etganda nopotologik va ongiga tasir korsatadigan emotsional holat tasirida bo'lganmi?

- Aybdorning ongiga va harakatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan nopotologik emotsional holatlar tasirida bo'lgan bo'lsa ulan aynan qaysilar?

- Aybdor jinoyat sodir etganda affekt yoki ongiga, harakatiga ta'sir ko'rsatgan emotsional holatlar bo'lsa ular ayni qaysilar?

- Aybdorjinoyat sodir etganda unga tasir ko'rsatgan emotsional nopotologik holatlar qancha vaqt davom etgan?

Ayblanuvchi, guvoh jabrlanuvchining vaziyati va ish holatlarini to'g'ri qabul qilish ulardagi haqqoniy ko'rsatmalar bera olish qobiliyati aniqlash uchun sud psixologik ekspertizasi tayinlanadi.

Yuqorida keltirilgan manbaalar shuni korsatmoqdaazal azaldan sud ekspertiza uni ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganish tarixi qadim qadimlardan o'z davri mutaxasislari tamonidan o'ganilib kelgan.

Ayni hozirgi zamon talablari va rivojlanishlardan bu soxadagi bilimlarimiz anchagina takomillashgan yanada izlanishlarga chuqurroq kirib borishimiz lozimligini ko'rsatmoqda. Bu sohani asl maqsadi voyaga yetmagan o'smirlar orasidagi jinoyat, qonunbuzarliklarni oldini olish. Qilingan jinoyat va qonunbuzarliklarni boshlang'ich nuqtasigacha yetib borish ularga aniq tashxis qo'yish, va albatta osmirlar ongidagi mana shunday jirkanch holatlarni tozalashdan va shu bilan birga mamlakatimizdagi jinoyatlarni sonini kamaytirishdan iborat.

IQTIBOSLAR. СНОЧКИ. REFERENCES.

1. APA handbook of psychology and juvenile justice. Heilbrun, K.(Ed), 2016
2. To learn more about the work psychologists are doing in this area, explore APA's journal LAW and Human Behavior, Division 41(American Psychology-Law Society), and Division18 (Psychologists in Public Service).
3. Fung ALC Gonkongda o'smirlarning reaktiv va faol tajovuzkorligi va zo'ravonligi: tarqalish, psixososyal korrelatsiyalar va oldini olish. *O'smirlar salomatligi jurnali* . 2019; 64 (6):
4. Kavya Hemanth, Maithri Tharmavaram, and Gaurav Pandey, History of Forensic Science.
5. Z.S.Elov. SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (ilmiy manbalar tahlili asosida)Педагогика ва психология. 2024/1/13 3-86
6. Z.S.Elov. Yuridik psixologiya. Darslik.B-2023 Kamolot nashriyoti. 238
7. Z.S.Elov. AFFEKTOLATIVAUNINGSUD-PSIXOLOGIKEKSPERTIZASI: Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022 №9. 306-311

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 1-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-1

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-1

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz